



TRITIKALE GENOTIPLARINING NAZORAT KO'CHATZORIDA BIOMETRIK KO'RSATGISHLAR

Jalg'asbaev Arzubay Biysenbay o'g'li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti, tayanch doktorant

Tel raqam: (88)657-12-28

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16715205>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 28-iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 30-iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 31-iyul 2025 yil

KEY WORDS

tritikale nav va tizmalar, o'simlik bo'yi, oxirgi bug'in uzunligi, boshqoq uzunligi, boshqoqshalar soni, yotib qolishga chidamlilik, nazorat ko'chatzori.

ABSTRACT

Maqolada biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha tritikalening nazorat ko'chatzorida o'rganilgan 15 ta nav va tizmalar orasida 9 ta tizmada boshqoqchalar soni bo'yicha andoza navdan yuqori bo'lgan ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi va seleksiyaning keyingi bosqichlariga o'tkazildi.

Kirish. FAO ma'lumotiga kura bugungi kunda 3 million gektor maydonga tritikale yetishtiriladi. Ko'pchilik davlatlarda tritikaleni yetishtirishda bo'lgan talab yil sayin oshib bormoqda. Xorazm viloyatida sug'oriladigan maydonlar kengayeshi tufayli sizot suvlarning sathi 1 metr atrofda bo'lgan maydonlar ko'paygan bu esa uz novbatida sho'rlanish dinomikasiga uz ta'sirini ko'rsatadi [2]

O'zbekistonda tritikale keng tarqalgan yangi oziq-ovqat, yem-xashak ekini va boshqa noqulay sharoitlarga moslashuvchan yani yotib qolishga, kasalliklarga chidamli o'simlik, tritikale donini saqlash usullarini samarador usullari tadbiiq etish dolzarb masala hisoblanadi [6]

Kasalliklarga, yotib qolishga chidamli navlarini yaratish va ularni yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha dunyoning turli mamlakatlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Adabiyotlar tahlili va biologik xususiyatlari. Tritikale bug'doy va javdar avlodlarini chatishtirish natijasida olingan yangi o'simlik avlodi. Tritikale o'simligida bug'doy donining sifati va javdar o'simligining noqulay sharoitga chidamlilik hususiyatlari mujassamlashgan. Triticale nomi Triticum (bug'doy) va Secale (javdar) so'zlarining birinchi qismlarini qo'shilishidan hosil bo'lgan. Tritikale bug'doy-javdar duragayi amfidiploidlarga mansub. Dastlab bug'doy-javdar duragayi Germaniyada yaratilgan [4].

Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, tritikale ko'p hollarda hosildorligi bo'yicha bug'doydan ustun turadi. Ammo, javdar boshog'ining ko'p boshqoqchaliligi bilan bug'doyga xos ko'p donli boshqoqchalilikni birlashtirishni amalga oshirish qiyin. Tritikalening boshog'i uzun, lekin boshqoqchalardagi donning soni bug'doyga nisbatdan kam bo'ladi [1]

Kuzgi tritikale hosili tarkibining asosiy elementlari navning genetik xususiyatlariga va hosil yegishtirishdagi tabiiy-iqlim sharoitiga bog'liq. Aytish mumkinki hosilni shakllantirishda ekologik sharoit muhim omil hisoblanadi [5].

Seleksiya jarayonida va urug'chilik soxasida navlarga quyiladigan talablar, maxsulot sifati va boshqa xo'jalik qimmatli belgilarini statistik taxlil qilish va natijalardan foydalanish darajasini aniqlash.

Biologik va mexanik ifloslanishda hosil elimintlarni va boshqa boshqa usimlik navlari bilan hamda boshqa navlar urug'lari bilan aralashishi, marfalogik belgilarini korilyatsiya bog'liqliklarini qaratilgan ekisperiment natijalarini aniqlash [3]

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda tajribalarni biometrik tahlillar «Qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash markazi»ning (1985, 1989) uslublari bo'yicha olib borildi.

Natijalar va ilmiy munozara. 2024 - yil hosili uchun Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba maydonlarida seleksiya ko'chatzorida 23 oktabr kuni tritikalening 15 ta nav va namunalari, 3 qaytariqda 51 paykalchada, har paykalcha 5 m² maydondan maxsus ekish seyalkasi (SSFK-10-25 rusumli) bilan ekish ishlari bajarildi.

Bundan tashqari, tritikalening nazorat ko'chatzorida o'rganilgan nav va namunalar biometrik o'lchovlar olib borildi.

2-jadval.

Tritikale genotiplarining biometrik ko'rsatkichlari

Del №	Nav va tizmalar	O'simlik bo'yi, sm	Oxirgi bug'in uzunligi, sm	Boshoq uzunligi, sm	Boshoqchalar soni, dona	Yotib qolishga chidamliligi, ball
1	SARDOR	106	54	10	50	9
2	KR22-TC-PYT-214	110	32	11	52	9
3	KR22-TC-PYT-116	142	42	14	64	8
4	KR22-TC-PYT-604	109	52	13	56	7
5	KR22-TC-PYT-621	114	45	14	58	8
6	KR22-TC-PYT-225	103	41	14	48	8
7	KR22-TC-PYT-255	85	37	9	46	9
8	KR22-TC-PYT-274	121	48	12	52	8
9	KR22-TC-PYT-288	113	51	13	30	7
10	KR22-TC-PYT-258	112	50	12	56	6
11	KR22-TC-PYT-116	98	42	11	52	9
12	KR22-TC-PYT-258	103	36	9	44	7
13	KR22-TC-PYT-604	117	51	13	48	8
14	KR22-TC-PYT-214	85	33	12	52	9
15	KR22-TC-PYT-288	83	31	13	56	9

Tritikalening seleksiya ko'chatzorida o'rganilgan tizmalar biometrik taxlillar, ya'ni o'simlik bo'yi, oxirgi bug'in uzunligi, boshoq uzunligi, boshoqdagi boshoqchalar soni va yotib qolishga bardoshli ko'rsatgichlari dala sharoitida o'rganildi. O'simlik bo'yi andoza Sardo navida o'rtacha 102 sm bo'lgan bo'lsa, 3 ta tizmada andoza navdan past bo'lganligi va qolgan 13 ta namunalarda andoza navdan uzun bo'lganligi (4-12 sm gacha) aniqlandi.

Eng asosiy ko'rsatgichlardan yotib qolishga bardoshlilik o'rganilganida 9 ball tizimda baxolandi. Bunda, andoza navi 9 ball ya'ni yotib qolishga o'ta chidamli xisoblangan bo'lsa, 3 ta

tizmalarda 7 ball bilan baxolandi, ya'ni qisman yotib qolishga moyil ekanligi aniqlandi (2-jadval).

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotda nazorat ko'chatzorimizda boshhoqdagi donlar soni bo'yicha andoza Sardor navida 50 tani tashkil qilgan bo'lsa, tizmalarda esa bu ko'rsatkich anchagina farq qilganligini ko'zatamiz va yani 30 donadan 64 ta don borligini aniqladi. KR22-TC-PYT-214 – 52, KR22-TC-PYT-116 – 64, KR22-TC-PYT-604 – 56, KR22-TC-PYT-621 – 58, KR22-TC-PYT-274 – 52, KR22-TC-PYT-258 – 56, KR22-TC-PYT-216 – 52 va KR22-TC-PYT-288 – 56 tizmalari andoza Sardor navidan yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi va tanlab olinib seleksiyaning keyingi bosqishiga yuborildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdukarimov T. "Tritikale seleksiyasi" Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi Toshkent - 2010. bett 84-101.
2. Doschanov J.S. "Ayrim tritikale navlarini xorazm viloyati tuproq –iqlim sharoitiga biokimyoviy ko'rsatkichlari" //Boshhoqli va dukkakli don ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi, yer va suv resurularini tijovchi yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish istiqbollari. Respublika ilmiy –amaliy konferinsiya to'plami. Qarshi 2020 yil bett 51-62.
3. Ergashov X. Ayrim qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. 35-38 betlar.
4. Agro olam. Uz. // Tritikale o'simligining yetishtirish sirlari va uning serhosilligi.
5. Onlayen insiklapidiya.
6. [https://uz. Upwiki.one Agronomiya – Vikepidiya yangilanish](https://uz.wikipedia.org/wiki/Agromiya)

INNOVATIVE
ACADEMY